

*Majidova Feruza Maxmud qizi*

*Osiyo xalqaro universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING EMOTSIONAL SOHASINING RIVOJLANISHI VA PSIXODIAGNOSTIKASI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsiya, emotsiya haqidagi nazariyalar va maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional sohaning rivojlanishi, Emotsiya va hissiyotlar rivojlanishining quyidagi yo'nalishlari Emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivoji, uning qonunlari Maktabgacha yoshdagi bolalarda oliy hissiyotlarning shakllanishi va ularning turlari, bolaning emotsional holatini, unda mavjud agressivlik darajasini, yo'nalganligi va intensivligini aniqlashga mo'ljallangan metodlar haqidagi ma'lumotlar qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** emotsiya, oliy hislar, intellektual estetik va axloqiy hissiyotlar, stress, motiv, xulq-atvor, burch hissi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теории дошкольников об эмоциях, об эмоциях и о развитии эмоциональной сферы у дошкольников, о следующих направлениях развития эмоций и эмоций в онтогенезе, о закономерностях формирования высших эмоций у дошкольников и их видах, о методах, предназначенных для определения эмоционального состояния ребенка, уровня имеющейся у него агрессивности, направленности и интенсивности информация кратко изложена.

**Ключевые слова:** эмоция, высшие чувства, интеллектуальные эстетические и моральные чувства, stress, мотив, поведение, чувство долга.

**Annotation:** this article summarizes the theories about emotionality, emotionality of preschool children and the development of the emotional sphere in preschool children, the following areas of the development of emotionality and emotions in the development of emotionality and emotionality in ontogenesis, its laws on the formation of higher emotions in preschool children and their types, information about the emotional state of.

**Keywords:** emotion, higher feelings, intellectual aesthetic and moral feelings, stress, motive, behavior, sense of duty.

**Emotsiya** (nor. emavere – uyg'otish, to'lqinlantirish) - odam yoki hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

**Emotsiya** (frans. lot. — larzaga keltiraman, hayajonlantiraman) — odam va hayvonlarning tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'siriga nisbatan subyektiv reaksiyalari. «Emotsiya» termini lotin tilidan olingan bo'lib, emoveo - hayajonlantiraman, xavotirga solaman, degan ma'noni anglatadi. Evolyutsiya jarayonida emotsiyalar tirik jonzotlarga organizm holatining biologik va tashqi ta'sirning ahamiyatini belgilashga imkon yaratadigan vosita sifatida paydo bo'lgan.

U. Djeymsning fikricha, «Emotsiya his etishga bo'lgan intilish» bilan bir vaqtning o'zida, «qalbning ichki holati bo'lib, emotsiyalarni ta'riflashga til ojiz... Biz faqatgina ularning ob'yektlarga bo'lgan munosabati va reaksiyalarini ta'riflay olamiz». P.K. Anoxin, emotsiyalarni belgilab, shunday deb yozadi: « Emotsiyalar – yorqin namoyon bo'ladigan sub'yektiv ko'rinishga ega bo'lgan va inson his qilishning, xavotirlanishining barcha turini egallab olgan – chuqur jarohat qoldiradigan azoblardan xursandchilikning yuqori shakllarini va ijtimoiy talqinda hayotni his qilishni o'z ichiga oladi». R.S. Nemov bo'yicha, emotsiyalar - bu « inson organizmining umumiy holati ta'sirida va aktual ehtiyojlarning qondirish oqibatida kelib chiqadigan elementar his kechinmalardir. Piaje emotsiyalarni xulq-atvor bilan bog'liq degan tushunchani ilgari suradi va emotsiyaning vazifasi xulq-atvorni shakllantirish degan g'oyani ilgari suradi. L.N.Leontevning fikriga ko'ra,

ichki kechinmalar emotsiyalar orqali paydo bo'ladi, lekin u uning yagona tarkibi emas. Oddiy emotsional jarayonlar organik, harakatli va sekretor (tug'ma reaksiyalarda) o'zgarishlarda ham namoyon bo'ladi. E.P.Ilyin emotsiyalarni «chegaralangan» ta'rifiga qarshi chiqqan holda, qo'rquvni misol tariqasida keltiradi – u manfiy emotsiya hisoblanib, qo'rquvga bo'lgan ehtiyojda yoki o'z-o'zini himoya qilish, yashash uchun kurash ehtiyojini qondirishga javoban paydo bo'lmaydi, - deydi. K.Izard birinchilar qatorida emotsiyalarning sezgir va funksional tomonlarini aniqlaydi: «Emotsiya, hissiyot kabi boshdan kechiriladi, u motivatsiya beradi, tashkillashtiradi va idrokni, tafakkurni, harakatlarni yo'naltiradi». A.L.Leontev – affekt va ehtiros, emotsiya va hislarga ajratadi. Emotsiyalar haqida yana ko'plab fikrlar bildirilib, ularning murakkabligi haqida ta'kidlar ham kam emas – ijobiy ( xursandchilik, zavq va boshqalar) va salbiy (g'azab, qayg'u, qo'rquv va boshqalar), shu bilan birga ularni oddiy emotsiyalarga – emotsional hislar toniga qarshi qilib qo'yadi. L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, his-kechinmalar (qayg'urish, xavotirlanish) – ong tuzilmasida shaxs ijtimoiy rivojlanish kengligi va dinamik kengligida o'rni katta. S.L.Rubinshteyn his-kechinmalar rolini predmetli psixologiya sohasining birinchi elementi sifatida katta ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, his-kechinmalar va bilimlar – bu sohaning ikkita plyusidir. E.G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida emotsiya-odatda tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalashidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda oliy hislarning rivojlanishi. Emotsiya va hissiyotlar rivojlanishining quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: bola hayotiy vaziyatining o'zgarishiga bog'liq ravishda emotsional holatlarning shakllanishi; emotsiyalar asosida oliy hissiyotlarning shakllanishi: emotsiya va hissiyotlarning shaxsiy tuzilmalar orasida yangi tuzilma sifatida shakllanib borishi. Emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivoji muayyan o'z qonunlariga ega;

1. Dastlab, ontogenezdagi oddiy kechinmalarni ifodalovchi emotsiyalar paydo bo'ladi. Bu kechinmalar tabiiy ehtiyojlarning qondirilishiga bog'liq ravishda vujudga keladi. (qondirilsa - ijobiy, qondirilmasa -salbiy emotsiyalar vujudga keladi). Bunday emotsiyalar hayvonlarda ham mavjud. Biroq boladagi eng oddiy emotsiyalardan hayvonlardagi eng oddiy emotsiyalarni farqlash kerak. Chunki emotsiyalarning namoyon bo'lish shakli insonda sotsial xarakterga ega.

2 yoshdan boshlab bola uchun bolalarning shodlik, xursandchilik, umuman ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi reaksiyalari eng informativ (ko'p axborot beradigan) bo'lib hisoblanadi. Tajribalardan birida 2-9 yoshdagi bolalarga fotosuratlardan turli mimik reaksiyalarni (xayronlik, jaxl, qo'rquv, xursandchilik va boshqalarni ifodalovchi reaksiyalarni) aniqlab olib, so'ngra ko'rsatib berish taklif etilgan. Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalar birinchi bo'lib xursandchilikni ifodalovchi mimik reaksiyalarni aniqlay olganlar. Ko'rsatib berishda ham eng oldin xursandchilikni ifodalovchi mimik reaksiyalarni aniqlay olganlar. Demak, dastlab ijobiy emotsiyalarni ko'rsatib beruvchi mimik reaksiyalarni aniqlash, boshqa reaksiyalar orasida tanish va namoyon eta bilish qobiliyati shakllanadi. Shubhasiz, ijobiy emotsiyalar maktabgacha yoshdagi bolaning psixik va jismoniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq V.A. Suxomlinskiy ta'kidlaganidek, agar bola shodlikni mehnatsiz, ruhiy kuchlarini ishga solmay qo'lga kiritaversa, ertami kechmi uning yuragi bir parcha "muz" ga aylanib qolishi mumkin. Unda sovuqqonlik paydo bo'lishi mumkin.

2. Emotsiyalarning rivojlanishi ularning differensiyasi, kechinmalarning boyib borishi singari ro'y beradi. Ijobiy emotsional yoki salbiy emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan kechinmalarga misol qilib, ozuqaga bo'lgan elitiyojning qondirilishi yoki qondirilmaligi tufayli bola o'z boshidan o'tkazadigan kechinmalarni keltirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolada salbiy kechinmalar qo'rquv, jaxl, jirkanish, ijobiy kechinmalar shodlik, bola mehrining atrofdagilarga tovlanib ketishi, ota-onasiga qalban, yaqinlashishi ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin.

3. Bolalar hissiyotlarining rivojlanishi muayyan ob'yektga yo'naltirilgan emotsiyalarning umumlashishi sifatida ro'y beradi. Emotsiya va hissiyotlarning shakllangan tizimida emotsiyalar boshdan o'tkazilayotgan hissiyotning namoyon bo'lishi sifatida gavdalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda, emotsiya va hissiyotlar tizimi endi-endi shakllanayotgan bo'ladi. Shuning uchun ularning emotsiyalari ular kechirayotgan hissiyotlarning namoyon bo'lishi emas, balki ko'proq oliy hissiyotlarning shakllanishi uchun umumlashtirilishi kerak bo'lgan materialidir.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional sohasining rivojlanishi davomida emotsional kechinmalarni uyg'otuvchi ob'ektdan sub'ektga munosabat ajralib boradi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, uning uchun ob'ekt tavsifi bilan sub'ektiv kechinmalari tavsifi shunchalik bir-biriga yaqin bo'ladi. 3 yoshli betob bola uchun unga ukol qilgan hamshira "yomon holda"dir. Bunda bola o'z emotsional holatining salbiy tavsifi (xarakteristikasi)ni bu holatning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan odamga ko'chirib o'tkazadi.

5. Maktabgacha yoshda emotsiya va hissiyotlarning dinamik va mazmuniy tomonlari rivoj topadi. Mazmun tomonning rivojlanishi atrof olam haqidagi bola bilimlarining kengayishi va chuqurlashishi, bola barqaror munosabatda bo'ladigan predmet va ayniqsa, nutqning rivojlanishi bilan bog'liq. Nutq yordamida bola o'z hissiyotlari va emotsiyalarini anglaydi va boshqaradi. Nutq orqali bolalarda nafaqat biror narsaga ehtiyoj sezayotganlarini bildiradilar, balki ma'lum bir tarzda o'z kechinmalarini ifodalaydilar. Bola emotsiyalarining rivojlanishi muayyan ijtimoiy vaziyatlar bilan bog'liq. Bolaning vaziyatni tushunish, vaziyatni va undagi o'zgarishlarni boshidan kechirishi muayyan emotsional holatni hosil qiladi. Bola uchun odatiy bo'lgan vaziyatlarning buzilishiga bola hayot tarzi, kun tartibining o'zgarishi sabab bo'lishi mumkin. Bu esa ba'zida stress holatini yuzaga keltiradi. A.I.Mishkis va L.G.Golubevaning ma'lumotlariga ko'ra bolalar yangi sharoitlarga moslashishi uchun 2 oy talab qilinadi. Burch hissining ilk bor namoyon bo'lishi 4-5 yoshlarga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda mavjud bilimlar, ko'nikma va malakalar asosida bolada axloqiy ong shakllana boshlaydi. Chunki bu davrda bolalar kattalarning talablarini tushuna boshlaydi va ularni o'zining xatti-harakati hamda boshqalarning xulq-atvoriga tadbiiq eta boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda faxr va uyat kabi etik kechimnalar ham paydo bo'ladi. Faxr hissining paydo bo'lishi uchun bola ongida konkret fazilatlar bilan atrofda gilarning ularga beradigan ijobiy bahosi o'rtasida mavjud aloqadorlik haqida shakllangan tasavvurlar ichki asos bo'lib xizmat qiladi. P.M.Yakobson ko'rsatib o'tganidek, maktabgacha yosh davrida hissiyotning bola harakatlarining motivi sifatidagi roli o'zgarib boradi. 3 yoshgacha bolaning harakatlari nima yoqimsiz-u, nima yoqimli ekanini anglashga asoslanadi. 3-4 yoshda boladagi jaxl, qo'rquv, qayg'urish darhol uni harakatga undaydi. U boshqa bola bilan urishadi, o'yinchoqni tortib oladi yoki kimgadir rahmi kelayotganini ko'rsatadi. 4-5 yoshda bola o'z harakatlarini hissiyotlarini bevosita namoyon etishdan o'zini tuta oladi yoki oliy hissiyotlariga asoslanib harakat qilishi mumkin. Emotsiya va hissiyotlar boshqaruv funksiyasini bajarib, bolaning xulq-atvorini qayta qurishga yordam beradi. Emotsional kechinmalar, xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi, yo'naltiradi yoki tormozlaydi. Bolaning xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan kattalarning ta'sirlari va talablari bola tomonidan emotsional qabul qilinsa, bola harakatlarining undovchisi bo'lib xizmat qiladi va emotsional javobni uyg'otadi. Oliy hissiyotlar 2-3 yoshdan boshlab shakllana boshlaydi. Oliy hissiyotlarga intellektual estetik va axloqiy hissiyotlar kiradi. Bolaning emotsional sohasi butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Ilk va katta maktabgacha yosh davri – bolada ancha muhim davr hisoblanadi. M.A.Panfilovning «Kaktus» metodikasi bolaning emotsional holatini, unda mavjud agressivlik darajasini, yo'nalganligi va intensivligini aniqlashga mo'ljallangan.

Xulosa qilib shuni aytamanki, Ilk va katta maktabgacha yosh davri bolaning emotsional sohasining rivoji uchun muhim davr sanaladi. Maktabgacha yosh davrida hissiyotning bola harakatlarining motivi sifatidagi roli o'zgarib boradi. Maktabgacha yoshda emotsiya va hissiyotlarning dinamik va mazmuniy tomonlari rivoj topadi. Mazmun tomonning rivojlanishi atrof olam haqidagi bola bilimlarining kengayishi va chuqurlashishi, bola barqaror munosabatda bo'ladigan predmet va ayniqsa, nutqning rivojlanishi bilan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional sohasining rivojlanishi davomida emotsional kechinmalarni uyg'otuvchi ob'ektdan sub'ektga munosabat ajralib boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning yangi tahriri Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
3. Z.T.Nishonova, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asranboyeva
4. " Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi " Toshkent - 2017 y
5. Z.Nishonova, G.Alimova " Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi " Toshkent - 2006 y .

6. Kozimova, N. A. (2023). Bugungi ta'lim tizimida zamonaviy o 'quvchi shaxsining ijtimoiy va psixologik jihatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 44-46.
7. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. PEDAGOG, 7(5), 670-676.
8. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 40-46.
9. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 54-60.
10. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. PEDAGOG, 7(4), 328-334.
11. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. European research, (3 (81)), 47-49.
12. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 918-924.
13. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 933-939.
14. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 882-887.
15. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 888-893.
16. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 912-917.
17. Akbarovna, I. S. (2024). МАТЕМАТИК TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING АНАМИЯТИ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 900-905.
18. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 875-881.
19. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 860-866.
20. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).
21. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26).